

XALQARO TURIZM RIVOJLANISHINING EKOLOGIK MUAMMOLARI

Jiyanov Uktam

O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi katta o‘qituvchisi
uktam.jiyanov87@gmail.com

Zamonaviy turizmga bo‘lgan e‘tibor XX asrda boshlangan bo‘lsada, uning rivojlanishi XXI asrga to‘g‘ri keldi. Bugungi kunda dunyoning 193 davlatidan 150 dan ortig‘i turizm bilan shug‘ullanadi. BMTning Turizm tashkiloti (UN Tourism) ma‘lumotlariga ko‘ra, 2023-yilda xalqaro turizmdan olingan daromadlar barqaror o‘sib, 1,4 trln. AQSh dollariga yetdi [5]. Bu raqam turizmning global iqtisodiyotdagi ahamiyati ortib borayotganligi va bu tarmoqning aholi bandligini oshirish hamda millatlararo madaniy hamkorlikni rivojlantirishdagi ahamiyati beqiyos ekanligidan dalolat beradi. Shuni ta‘kidlash kerakki, bunday o‘sish global darajada yuz berayotgan jarayonlar natijasi bo‘lgan noaniqlik sharoitida amalga oshmoqda, bu esa, o‘z navbatida, turizmning faoliyat sifatida barqaror ekanligidan darak beradi.

Jahon iqtisodiyotida turizm sohasi tabiiy resurslarning kamayib ketishiga olib kelmagan holda milliy iqtisodiyotlarning o‘sishiga ta‘sir ko‘rsatadi. Turizmni rivojlantirish savdo, transport, aloqa, qishloq xo‘jaligi, qurilish, iste‘mol tovarlarini ishlab chiqarish va boshqa iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlariga ijobiy ta‘sir qiladi.

Xalqaro turizmning jadal o‘sishi mamlakatlar va mintaqalarning rivojlanishiga bevosita iqtisodiy samaralar bilan bir qatorda ijtimoiy-iqtisodiy xarakterdagi ijobiy va salbiy tendensiyalarga ega ekanligini ta‘kidlash lozim. Bu tendensiyalarning yuzaga kelishi qaysidir ma‘noda turizm sohasidagi ro‘y berayotgan quyidagi jarayonlar bilan bog‘liq deyish mumkin:

- dunyoga sayyohlar kelishining tobora ortib borishi;
- turistik oqimlar geografiyasining kengayishi;
- transport rivojlanishi evaziga aholi harakatchanligining oshishi;
- turizm industriyasida transmilliylashuvning kuchayishi;
- turizm turlarining diversifikatsiyalashuvi;
- turistik agentliklar va turistik markazlar ixtisoslashuvining kuchayishi;
- turizmda axborot texnologiyalarining rivojlanishi.
- *tabiiy, iqtisodiy va geosiyosiy jarayonlarning beqarorligi va boshqalar.*

Turizm sohasidagi ijobiy tendensiyalar dunyo miqyosida iqtisodiy o‘sishga va mahalliy jamoalarning farovonligiga katta hissa qo‘shadi. Biroq bu jarayon atrof-muhitga salbiy ta‘sir ko‘rsatishi ham mumkin:

Soha mutaxassislarining ishlarini tahlil qilish turizmning tabiiy muhitga ta‘sirining bir qancha muhim yo‘nalishlarini umumlashtirish va ajratib ko‘rsatish imkonini beradi: turistik harakatchanlik va transportni rivojlantirish bilan bog‘liq jarayonlarning landshaftlarga ta‘siri; turizm infratuzilmasini yaratish natijasida yuzaga keladigan salbiy oqibatlar; turizmning faol turlari va

rekreatsion yuklarni baholash orqali landshaftga salbiy bosimning kuchayishi.

Bugungi kunda turistik harakat va transportning rivojlanishi bilan bog'liq holda landshaftga ta'sir va bosim kuchayib bormoqda. Rivojlangan mamlakatlarda transport va transport infratuzilmasining landshaftga ta'sirini o'rganish uzoq tarixga ega bo'lganligi sababli, “turizm – harakatchanlik – tabiiy muhit” sohasidagi ziddiyatli vaziyatlarni hal qilish bo'yicha ushbu tajriba katta amaliy qiziqish uyg'otadi.

Energiya sarfi va zararli moddalar chiqindilari bo'yicha qiyosiy hisob-kitoblar shuni ko'rsatdiki, eng kam “zararli” transport turlari turistik avtobuslar va temir yo'llardir. So'nggi yillarda ulaning turizm bozoridagi ulushi pasayib bormoqda. Bunga sabablar sifatida temir yo'l tariflarining yuqoriligi va avtoulavlardan tobora ko'proq foydalaniladigan individual sayohatlarning ko'payishini keltirish mumkin. Masalan, Germaniya va Shveytsariyada fuqarolarning 68-75% i turistik sayohatlari uchun avtomobildan foydalanadi [1].

Avtomobil transporti atmosfera havosini (issiqlik energetikasi bilan bir qatorda) asosiy ifloslantiruvchi moddalardan biri bo'lib, juda ko'p miqdordagi zararli moddalarni: karbonat ангидрид, олtingugurt диоксиди, og'ir metallarni chiqarishni ta'minlaydi. Avtotransport vositalaridan keng miqyosda foydalanishning bilvosita salbiy oqibatlari quyidagilardan iborat: avtohalokatlarda o'lim, kislotali yog'ingarchilik, issiqxona gazlari va ozonni buzuvchi gazlar chiqindilari, tuproqning og'ir metallar bilan ifloslanishi kabilar [2]. Ayniqsa, tog'li hududlarda joylashgan turistik yo'nalishlarning tabiiy muhitiga avtotransportning sezilarli ta'siri mavjud.

Hududlarning ekologik muammolari turizm uchun yana bir tahdid – tabiiy ofatlarning rivojlanishini rag'batlantirmoqda. Shunday qilib, o'rmon landshaftlarini vayron qilish (turistik infratuzilma obyektlarini qurish uchun tozalash, yo'l qurilishi, shuningdek, kislotali yog'ingarchilik ta'siri tufayli) qor ko'chkilari, toshlar, suv va sel oqimlarining kirib borishi ta'sirining kuchayishiga olib keladi [3].

Jahon turizmida havo qatnovining ko'payishi ham atrof-muhitga antropogen ta'sir ko'rsatuvchi kuchli omilga aylanib bormoqda. Havo qatnovi landshaftga hududiy ta'sir ko'rsatadigan infratuzilmani, samolyot shovqinini, energiya iste'molini va albatta, ozon qatlamiga ta'sirini va issiqxona effektini yuzaga chiqaradi. Yevropa transport va atrof-muhit federatsiyasi ma'lumotlariga ko'ra, havo transportidan har yili karbonat ангидрид chiqindilari 730 million tonnani tashkil etadi. Umuman olganda, global isishning 4,9% havo transporti hissasiga to'g'ri keladi [4].

Ko'p jihatdan inson faoliyati natijasida yuzaga kelgan iqlim o'zgarishi turizm sanoatining global o'zgarishlariga olib kelishi mumkin. Shunday qilib, nafaqat turistik markazlarning ixtisoslashuvi yuz berishi (masalan, qishda qorning kam yog'ishi va qor qoplamining qisqarishi an'anaviy tog'-chang'i kurortlari imkoniyatlarining qisqarishi; global isish qutb muzliklarining erishiga va natijada dengiz sathining ko'tarilishi tufayli dengiz qirg'oqlarini suv bosishi),

balki jahon turizmi geografiyasi ham o'zgarishi mumkin.

Turizm infratuzilmasini yaratishdan kelib chiqadigan salbiy oqibatlar. Bu masala alohida o'rin tutadi, chunki Yevropada turizmni mehmonxona yoki joylashtirish vositalarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

Ekoturizm turizm industriyasining jadal rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri bo'lib, milliy bog'lar va jahon tabiiy merosi obyektlariga tashrif buyurish ortib bormoqda.

Shu bilan birga, asosiy ehtiyojlar tovar va xizmatlarni sotib olish orqali qondirila boshlagan postindustrial jamiyatda qarama-qarshi tendensiya shakllanmoqda. Iste'molchining xulq-atvor strategiyasi dam olishga bo'lgan munosabatni o'zgartirmoqda va turizmni hududiy tashkil etishga yangi talablarni qo'ymoqda. Bir vaqtlar tog'larda an'anaviy dam olishga bo'lgan talab qisqarib, ommaviy turizm nuqtai nazaridan zerikarli mashg'ulot sifatida baholanmoqda. Bugungi kunda tog'li hududlar muhandislik ta'sirida ommaviy tadbirlar o'tkaziladigan gavjum maskanga aylantirilmoqda, bu esa landshaftga hududiy bosimni oshiradi.

Landshaftga bosim qo'shimcha transport infratuzilmasi (to'xtash joylari, sport yaxtalari uchun to'xtash joylari, yoqilg'i quyish shoxobchalari) va to'g'ridan to'g'ri sayyohlik obyektlari, masalan, chang'i tog'lari va golf maydonchalari qurilishi bilan ortib bormoqda.

Sayyohlik infratuzilmasi faoliyati bilan bog'liq ko'plab ekologik va iqtisodiy muammolar, xususan, energiya va suv ta'minoti, kanalizatsiya va chiqindilarni yo'q qilish bilan bog'liq. Sayyohlar kundalik odatlari va ehtiyojlarini o'zgartirishni xohlamaydilar va ko'pincha ta'tilda uydagidan ko'ra ko'proq energiya va suv iste'mol qiladilar. Bu muammoni, ayniqsa, qurg'oqchil va yarim qurg'oqchil hududlarda, shuningdek, kichik orollarda yaqqol kuzatish mumkin. Suv iste'moli bo'yicha yetakchilik plyaj turizmi (kishi boshiga kuniga 245-260 litr) hissasiga tushadi. Oqava suvlarning katta qismi (shu jumladan, ifloslangan) tabiiy suv havzalariga tushadi. Ayniqsa, quruq hududlarda ko'p miqdorda suv talab qiladigan golf maydonchalarini saqlash bilan bog'liq jiddiy muammolar yuzaga keladi. Masalan, Dubaydagi kabi tog'larda sun'iy qorni tashkil etish juda ko'p suv va elektr energiyasini talab qiladi [6].

Turizmda mashhur bo'lgan tematik parklar yangi muammo tug'dirmoqda. Ushbu dam olish markazlari 1980-yillarning o'rtalarida paydo bo'la boshladi. Alohida hududda bungalovlar, faol va passiv dam olish va suv attraksionlarining ko'p turlarini birlashtirdi. Ular ko'pincha eng qiziqarli landshaft hududlarini egallaydi, o'zida ko'p sonli qiziquvchilarni jamlaydi, juda ko'p suv va energiya iste'mol qiladi, kanalizatsiya va axlatlarni ishlab chiqaradi, shuningdek, transport tirbandligini keltirib chiqaradi [6].

Yuqoridagilarni umumlashtirgan holda shuni ta'kidlash kerakki, turizm tabiiy resurslarsiz mavjud bo'la olmaydi – tabiiy muhit, bundan tashqari, uning holatiga, o'ziga xos resurslarga ega bo'lishga alohida talablar qo'yadi. Shu sababli, inson faoliyatining eng daromadli sohalaridan biri – turizmni

rivojlantirish uchun tabiatning tozaligi, uning go‘zalligi haqida g‘amxo‘rlik qilish hayotiy muhim masala va tabiiy zaruriyatdir. Turistik faoliyat jarayonida muqarrar ravishda tabiiy muhit o‘zgarishi, shu bilan birga, salbiy o‘zgarishlar ustun bo‘lib, unga sezilarli darajada ziyon yetkazishini kamaytirish tabiatga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo‘lish zarurligini isbotlaydi. Ammo, amaliyot shuni ko‘rsatadiki, agar biz faqat shu bilan cheklanib, tabiatni turizmning salbiy ta‘siridan himoya qilish uchun yanada samarali choralar ko‘rmas ekanmiz, bunday ommalashtirish va axloqiylashtirishning samaradorligi ahamiyatsiz bo‘lib qoladi. Uni hal qilish uchun tabiiy resurslardan sayyohlik maqsadlarida foydalanishda turli xil va o‘zaro bog‘liq ta‘sir choralari o‘z ichiga oladigan tizimli yondashuvlardan foydalanish, uni joriy etish talab qilinadi. Bunday ta‘sir choralari qo‘shimcha texnik, tashkiliy, sotsiologik, resursshunoslik va ekologik bilimlarni jalb qilishni o‘z ichiga oladi. Bu esa keng ma’noda ekologik yo‘naltirilgan turizmni boshqarish va chegaralari torroq, lekin ekologik harakatlar uchun yanada samarali vositalarga ega bo‘lgan ekologik turizmni boshqarish masalasini keltirib chiqaradi. Tabiiy muhitning turistik maqsadlarda nazoratsiz ishlatilishi natijasida qayta tiklanmas jarayonlarning paydo bo‘lishi ko‘pincha ekologik tabiiy muhitning yo‘qolib ketishiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Grundlagenuntersuchung Freizeit und Urlaubsmarkt Wandern: Forschungsbericht № 591. Bundesministerium fur Wirtschaft und Technologie (BMWi). – Bahlingen, 2020.
2. Muller, H. Tourismus und Okologie: Wechselwirkungen und Handlungsfelder. – Munchen: Oldenbourg Wissensch. Verlag, 2017.
3. Batzing, W. Orte guten Lebens. Die Alpen jenseits von Uebernutzung und Idyll. – Zurich: Rotpunktverlag, 2019(a).
4. Kamp, Ch. Flugverkehr im Klima-Deal // Tourismwatch. – September, 2019.
5. <https://www.unwto.org/news/international-tourism-to-reach-pre-pandemic-levels-in-2024>
6. <https://www.umweltbundesamt.de/themen/wirtschaft-konsum/nachhaltiger-tourismus>

“ЯШИЛ” ИҚТИСОДИЁТ ВА УГЛЕРОД НЕЙТРАЛИГИГА ЭРИШИШ

Исаджанов Абдували Абдурахимович
Ўзбекистон халқаро ислом академияси,
и.ф.д., профессор

Охирги йилларда жаҳон иқтисодиётининг янги модели ривожланишини таъминлаш билан боғлиқ тадқиқотларда глобал экологик ўзгаришлар ҳисобга олинмоқда. Ривожланишнинг янги моделини излаш барқарор ривожланиш парадигмаси эволюциясига, “яшил” иқтисодиёт юзага келишига сабабчи бўлди. Ўзбекистон Республикасининг 2019-2030-йилларга мўлжалланган “Яшил”